“Laktopropolis” biologik faol qo’shimchasi

Helicobater pylori – oshqozonda yashovchi patogen bo’lib, dunyo bo’yicha 70% aholida uchraydi va u odamlarda gastrit, oshqozonning peptik yarasi va saratonini keltirib chiqaradi. Ushbu infektsiya antibiotiklarni qo’llash orqali davolanadi, lekin antibiotiklarga chidamli mikroorganizmlar sonining ortayotganligi tufayli 30% holatda ushbu terapevtik muolajalarning samarasiz ekanligi qayd etilmoqda. 74% holatda kasalliklarning qaytalanishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, antibiotiklardan foydalanish ko’plab nojo’ya ta’sirlarni keltirib chiqaradi, masalan oshqozon-ichak tizimi mikrob muvozanatining buzilishiga sabab bo’ladi.

O’zR FA Mikrobiologiya institutida “Laktopropolis” probiotik preparati ishlab chiqilgan bo’lib, u oshqozon-ichak tizimi infeksiyalari, shu jumladan, xelikobakter infeksiyasi, profilaktikasi va terapiyasida samarali va nojo’ya ta’sirlarsiz vosita bo’lib xizmat qiladi. Preparat infeksiya qo’zg’atuvchisiga antagonistik ta’sir ko’rsatishidan tashqari yallig’lanishga qarshi, qayta tiklovchi, immunomodulyator ta’sirga ega ekanligi tadqiqotlarda ko’rsatilgan. Bundan tashqari, hozirgi paytda keng qo’llanilayotgan import qilib olib kelingan gastroprotektorlarga nisbatan “Laktopropolis” preparati yaralarning bitish va chandiqlanish davomiy qisqartirishi (taxminan 2 marta) aniqlangan.

“Laktopropolis” preparatini ishlab chiqarishga joriy etish va aholini ushbu vosita bilan ta’minlash davolanish xarajatlarini sezilarli kamaytirish va *Helicobacter pylori* bilan zararlangan bemorlar hayot sifatini oshirish imkonini beradi.